



EXISTENTIAL RISKS AND PROBLEMS OF SOCIO-PHILOSOPHICAL ADAPTATION IN REGIONAL MIGRATION FLOWS

Bakhodirjon Maxamadjonovich Abdullayev

Lecturer (PhD)

Department of Social and Humanitarian Sciences

Pedagogy and Psychology, ADCHTI

Andijan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: migration, existential risk, adaptation, unification, 1.5 multiplier, Andijan, remigration, destructive ideology.

Received: 22.02.26

Accepted: 23.02.26

Published: 24.02.26

Abstract: The article analyzes the impact of migration on human existence and the statistical landscape of the Andijan region for 2025. The author substantiates the concepts of the "1.5 multiplier effect" and "unification" of remigrants' social capital. Practical measures for the rehabilitation of deported persons and individuals at risk are proposed.

MINTAQAVIY MIGRATSIYA OQIMLARIDA EKZISTENSIAL XAVFLAR VA IJTIMOY-FALSAFIY ADAPTATSIYA MUAMMOLARI

Baxodirjon Maxamadjonovich Abdullayev

O'qituvchi (PhD)

Ijtimoiy gumanitar fanlar, Pedagogika va psixologiya kafedrası

ADCHTI

Andijon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: migratsiya, ekzistensial xavf, adaptatsiya, unifikatsiya, 1,5 multiplikator, Andijon, remigratsiya, destruktiv mafkura.

Annotatsiya: Maqolada globallashuv davrida migratsiyaning inson borlig'iga ta'siri va Andijon viloyatining 2025 yilgi statistik manzarasi tahlil qilingan. Muallif remigrantlar ijtimoiy kapitalini ifodalovchi «1,5 multiplikator samarasi» va «unifikatsiya» konsepsiyalarini asoslab bergan. Deport qilingan va xavfli guruhga tushgan shaxslarni reabilitatsiya qilish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

ЭКЗИСТЕНЦИАЛЬНЫЕ РИСКИ И ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЙ АДАПТАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНЫХ МИГРАЦИОННЫХ ПОТОКАХ

Бахадиржон Махамаджонович Абдуллаев

Преподаватель (PhD) кафедры социально-гуманитарных наук

педагогике и психологии, АДЧТИ

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: миграция, экзистенциальный риск, унификация, Андижан, мультипликатор 1,5, ремиграция, деструктивная идеология.

Аннотация: В статье анализируется влияние миграции на бытие человека и статистическая панорама Андижанской области за 2025 год. Автором обоснованы концепции «эффекта мультипликатора 1,5» и «унификации» социального капитала ремигрантов. Предложены практические меры по реабилитации депортированных лиц и лиц из групп риска.

Kirish. Zamonaviy ijtimoiy falsafada globallashuv shunchaki iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayoni emas, balki inson borlig'ining (ekzistensiyasining) fundamental o'zgarishi sifatida talqin etiladi. Bu jarayonning eng muhim ifodasi bo'lgan migratsiya fenomeni bugungi kunda insoniyatni yagona madaniy va ijtimoiy makonga birlashtirishga xizmat qiluvchi universal mexanizmga aylandi. Migratsiya jarayonlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish, avvalo, inson kapitalining global harakati natijasida yuzaga keladigan «ijtimoiy unifikatsiya» hodisasini anglashni taqozo etadi.

Unifikatsiya — bu migrant shaxsiyatining o'z milliy-madaniy qobig'idan chiqib, global ijtimoiy normalar va universal qadriyatlar tizimiga moslashishi jarayonidir. Bunda inson nafaqat geografik makonini, balki o'zlikni anglash (identifikatsiya) paradigmasini ham o'zgartiradi. Ijtimoiy-falsafiy metodologiya nuqtai nazaridan, migratsiya sharoitida unifikatsiya jarayoni ikki tomonlama xarakterga ega. U bir tomondan, individning yangi muhitga integratsiyalashuvini tezlashtirsa, ikkinchi tomondan, milliy o'zlikning «universallasuvi» natijasida madaniy diffuziyani keltirib chiqaradi.

Andijon viloyati misolida ushbu jarayonning mintaqaviy xususiyatlarini tahlil qilish, global jarayonlarning mahalliy ijtimoiy tuzilmaga ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Ma'lumki, migratsiya faqatgina ishchi kuchi oqimi emas, balki ijtimoiy dunyoqarashlarning transformatsiyasidir. Bu jarayonda migrant «translokal shaxs» sifatida namoyon bo'lib, bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq madaniy maydonda hayot kechiradi. Ushbu holat ijtimoiy

falsafada «makoniy begonalashuv» va «ijtimoiy adaptatsiya» oʻrtasidagi dialektik munosabatlarni tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi .

Globalashuvning migratsiyaga taʼsirini oʻrganishda tizimli-strukturaviy yondashuv muhim ahamiyatga ega. Unga koʻra, migratsiya — bu jamiyatning ijtimoiy-maʼnaviy barqarorligini belgilovchi dinamik tizimdir. Ushbu tizimning Andijon viloyatidagi koʻrinishi oʻziga xos demografik zichlik va yuqori mehnat mobilligi bilan ajralib turadi, bu esa unifikatsiya jarayonlarining jadalligini belgilaydi.

Migratsiya fenomenini mintaqaviy kesimda tadqiq etish, global jarayonlarning mahalliy ijtimoiy tuzilmaga taʼsir darajasini aniqlash imkonini beradi. Andijon viloyati oʻzining yuqori demografik zichligi va mehnat resurslarining mobilligi bilan mamlakat migratsion manzarasida alohida strategik oʻrin tutadi. 2025 yil yakunlariga koʻra, viloyatdagi migratsion oqimlarning miqdoriy va sifat koʻrsatkichlari jamiyatning ijtimoiy-falsafiy qiyofasida «unifikatsiya» jarayonlari jadallashayotganidan dalolat beradi .

Statistik maʼlumotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, 2025 yilning 12 oyi davomida Andijon viloyati boʻyicha uzoq muddatda xorijda boʻlib turgan shaxslarning umumiy soni 104 417 nafarni tashkil etdi. Ushbu koʻrsatkichni gender jihatidan tahlil qilganimizda, migratsiya oqimining asosiy qismi erkaklar — 85 205 nafar (81,6%) ekanini, ayollar esa 19 212 nafarni (18,4%) tashkil etishini koʻrish mumkin. Falsafiy-antropologik nuqtai nazardan, ayollar migratsiyasining qariyb 20 foizga yaqinlashishi anʼanaviy oila institutidagi rollar taqsimotining transformatsiyasiga va oilaviy qadriyatlarning global andozalar asosida unifikatsiyalashuviga xizmat qiluvchi muhim omildir .

Migratsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy determinantlarini oʻrganishda shaxslarning ketish maqsadlari muhim ahamiyat kasb etadi. Maʼlumotlarga koʻra, jami migrantlarning 86 665 nafari (83%) ishlash maqsadida chiqib ketgan. Shu bilan birga, 1 458 nafar (1,4%) fuqaroning taʼlim olish maqsadida xorijda boʻlishi, mintaqada yangi «intellektual qatlam»ning shakllanishi va global taʼlim standartlarining mahalliy tafakkur tizimiga integratsiyalashuvini anglatadi. Qolgan 16 294 nafar (15,6%) shaxsning boshqa maqsadlar bilan xorijda boʻlishi migratsiyaning koʻp vektorli xarakterini ifodalaydi.

Viloyat miqyosida qaytib kelgan (remigrantlar) sonining 127 477 nafarni tashkil etishi esa hududda ijtimoiy kapitalning intensiv aylanishini taʼminlamoqda. Bu koʻrsatkichlar migratsiyani shunchaki «chiqib ketish» emas, balki doimiy yangilanib turuvchi ijtimoiy-falsafiy jarayon sifatida talqin etishga asos boʻladi.

Migratsiya jarayonlarining yosh toifalari boʻyicha stratifikatsiyasi jamiyatning intellektual va mehnat salohiyati qay darajada global unifikatsiyalashuv jarayoniga jalb etilganini koʻrsatuvchi

muhim indikator hisoblanadi. Ijtimoiy falsafada yosh — bu shunchaki biologik ko'rsatkich emas, balki ijtimoiy ongning shakllanish va qadriyatlar tizimining moslashuvchanlik bosqichidir. Andijon viloyatidagi migratsion kontingentning yosh tarkibi mahalliy ijtimoiy muhitning istiqboldagi qiyofasini belgilab beradi.

Statistik tahlillarga ko'ra, viloyat bo'yicha uzoq muddatda yurgan shaxslarning eng katta qismi — 45 424 nafari (43,5%) 30 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan shaxslar hissasiga to'g'ri keladi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu qatlam jamiyatning «ijtimoiy tayanchi» va an'anaviy qadriyatlarning asosiy tashuvchisi hisoblanadi. Ularning global migratsiya oqimlarida ishtirok etishi, oila instituti va mahalliy jamoalardagi ijtimoiy nazorat tizimining transformatsiyalashuviga olib keladi. 30-45 yoshli migrantlarning xorijiy muhitdagi tajribasi va o'zlashtirgan ijtimoiy normalari remigratsiya jarayonida mahalliy muhitni «unifikatsiyalash»ning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi.

Migratsiyaning keyingi muhim bo'g'inini 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi — 32 332 nafar (31%). Bu qatlamning migratsiyadagi ishtiroki jamiyatning innovatsion salohiyati va reproduktiv xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yoshlar ongining «unifikatsiyalashuvi» katta avlodga nisbatan tezroq kechadi, bu esa ijtimoiy-madaniy «diffuziya»ning jadallashishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, 20 390 nafar (19,5%) 45 yoshdan yuqori bo'lgan hamda 6 271 nafar (6%) 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarning xorijda bo'lishi migratsiyaning «oilaviy xarakteri» kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

Demak, Andijon viloyatidagi migratsion dinamikaning yosh kesimidagi tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyatning eng mahsuldor va faol qatlami global qadriyatlar ta'siri ostida qayta shakllanmoqda. Bu esa o'z navbatida, mintaqada ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda yosh omilini hisobga oluvchi yangi falsafiy konsepsiyalarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Migratsiya jarayonining yakuniy va ijtimoiy jihatdan eng mahsuldor bosqichi bu — remigratsiya, ya'ni vatanga qaytish fenomenidir. Ijtimoiy falsafada remigratsiya shunchaki jismoniy qaytish emas, balki xorijda shakllangan yangi dunyoqarash, ijtimoiy ko'nikma va madaniy kodlarning mahalliy muhitga transferi sifatida talqin etiladi. Andijon viloyati misolida remigratsiya oqimlarining ko'lami va ularning jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy yangilanishidagi roli strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025 yil davomida Andijon viloyatiga turli davlatlardan qaytib kelgan fuqarolar soni 127 477 nafarni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichning yuqoriligi hududda ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-falsafiy transformatsiyalarning yangi to'lqinini yuzaga keltiradi. Bizning tadqiqotimiz doirasida ilgari surilayotgan «1,5 multiplikator samarasi» konsepsiyasiga ko'ra, remigrant nafaqat moddiy resurs, balki o'zi bilan olib kelgan

«unifikatsiyalashgan ijtimoiy kapital» orqali atrofda kamida 1,5 nafar shaxsning dunyoqarashi va ijtimoiy xulq-atvoriga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu effektning mazmuni shundaki, xorijda ijtimoiy-falsafiy unifikatsiya bosqichini o'tagan shaxs mahalliy muhitga qaytgach, mehnat madaniyati, ijtimoiy mas'uliyat va innovatsion fikrlash tarzi bo'yicha «namunaviy model» vazifasini bajaradi. Masalan, Andijon viloyatining Izboskan yoki Asaka kabi migratsiya faol bo'lgan tumanlarida remigrantlar tomonidan joriy etilayotgan kichik ijtimoiy loyihalar va mehnatni tashkil etishning yangi shakllari jamiyatning ichki salohiyatini 1,5 baravar tezroq safarbar qilishga xizmat qiladi. Bu esa ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning «pastdan yuqoriga» yo'naltirilgan falsafiy modelidir.

127 ming nafardan ortiq remigrantning qaytishi Andijon viloyati uchun shunchaki demografik ko'rsatkich emas, balki hududning ijtimoiy-falsafiy manzarasini modernizatsiya qiluvchi qudratli drayverdir. Remigratsiya jarayonidagi unifikatsiyalashuv milliy qadriyatlarni inkor etmagan holda, ularni global samaradorlik standartlari bilan boyitishga xizmat qiladi.

Globalashuv sharoitida migratsiya nafaqat ijobiy imkoniyatlar, balki shaxs ma'naviyati va jamiyat barqarorligiga tahdid soluvchi murakkab ekzistensial xavflarni ham keltirib chiqarmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek: «Bugungi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, ziddiyat va to'qnashuvlar keskin tus olmoqda. Ma'rifatga qarshi jaholat, ezgulikka qarshi yovuzlik avj olayotgan bunday murakkab vaziyatda biz hushyorlik va ogohlikni har qachongidan ham oshirishimiz zarur». Bu ko'rsatma migratsiya jarayonlarida «ma'naviy-falsafiy xavfsizlik» modelini shakllantirishning strategik ahamiyatini belgilab beradi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, migrantning o'z an'anaviy madaniy muhitidan uzilishi va begona mafkuraviy maydonda «ekzistensial bo'shliq» holatiga tushishi uni destruktiv g'oyalar ta'siriga nisbatan zaif qilib qo'yadi. Andijon viloyati Ichki ishlar boshqarmasining 2025 yilgi statistik ma'lumotlariga ko'ra, migratsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar, xususan, JKning 154-moddasi bilan bog'liq xavflarning mavjudligi (Andijon shahrida 10 ta, Izboskanda 5 ta holat) shaxs dunyoqarashining salbiy unifikatsiyalashuvi natijasidir. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev qayd etganidek: «Yoshlarimizning qalbi va ongi uchun kurash ketayotgan hozirgi zamonda biz «jaholatga qarshi ma'rifat» g'oyasi asosida ishlashimiz, farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan vatanparvar insonlar etib tarbiyalashimiz shart».

Viloyatda xorijdan «xavfli guruh» toifasida qaytib kelgan 201 nafar shaxsning mavjudligi jamiyatda ijtimoiy rehabilitatsiya va resotsializatsiya tizimini falsafiy jihatdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Migrant shaxsiyatidagi destruktiv elementlarni bartaraf etish uchun faqatgina ma'muriy nazorat yetarli emas. Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan

«Inson qadri uchun» tamoyili asosida migrantlarning qadriyatlar tizimini sogʻlomlashtirish, ularda milliy oʻzlik va global masʼuliyat uygʻunligini qaror toptirish zarur.

Andijon viloyatidagi migratsion muhitni sogʻlomlashtirish — bu individning ichki maʼnaviy dunyosi va jamiyatning ijtimoiy xavfsizligi oʻrtasidagi mutanosiblikni tiklash demakdir. Destruktiv mafkuralarga qarshi «mafkuraviy immunitet»ni shakllantirish remigrantlar bilan ishlashning maʼnaviy-falsafiy poydevoriga aylanishi lozim.

Migratsiya jarayonlarining eng inqirozli nuqtasi — bu deport va majburiy repatriatsiya holatlari boʻlib, ular ijtimoiy falsafada «inson kapitalining devalvatsiyasi» va «shaxsning majburiy marginallashuvi» sifatida talqin etiladi. Shaxsning xorijiy jamiyat tomonidan huquqiy yoki ijtimoiy jihatdan rad etilishi uning dunyoqarashida «unifikatsiya» jarayonining salbiy traektoriyaga kirishiga sabab boʻladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev taʼkidlaganidek: «Qaysi davlatda, qaysi sharoitda boʻlmasin, Oʻzbekiston fuqarosi oʻz davlatining himoyasini va eʼtiborini his qilishi shart». Bu tamoyil migratsiyada muvaffaqiyatsizlikka uchragan shaxslarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi uchun maʼnaviy asos boʻladi.

Andijon viloyati Ichki ishlar boshqarmasining 2025 yilgi statistik maʼlumotlariga koʻra, yil davomida xorijiy davlatlardan 80 nafar fuqaro deport qilingan. Falsafiy-antropologik jihatdan deport — bu shunchaki chegaradan chiqarib yuborish emas, balki individning ijtimoiy adaptatsiya jarayonining tizimli inqirozidir. Deport boʻlgan shaxslarning 78,7 foizi MDH davlatlari hissasiga toʻgʻri kelishi, migratsion oqimlardagi huquqiy va madaniy unifikatsiyaning past darajada ekanligini koʻrsatadi.

Deport holati migrant ongida «begonalashuv» (alienatsiya) va «ijtimoiy depressiya» tuygʻusini kuchaytiradi. Shaxs xorijda qabul qilinmaganligi va vataniga «magʻlub» sifatida qaytganligi sababli, unda jamiyatga nisbatan nigilistik qarashlar shakllanishi mumkin. Bu esa ijtimoiy falsafada «makoniy begonalashuv» va «oʻzlikni yoʻqotish» muammosini keltirib chiqaradi. Andijon viloyatining mehnat mobilligi yuqori boʻlgan tumanlarida bunday shaxslar bilan ishlashda faqatgina iqtisodiy koʻmak emas, balki ularning ijtimoiy statusini tiklashga qaratilgan ekzistensial yondashuv zarur.

Globalashuv sharoitida Andijon viloyati misolida oʻtkazilgan ijtimoiy-falsafiy tahlillar shuni koʻrsatadiki, migratsiya — bu shunchaki aholining makoniy harakati emas, balki jamiyat ijtimoiy ongining «unifikatsiyalashuvi» va qadriyatlar tizimining qayta shakllanishidir. 2025 yil yakunlariga koʻra aniqlangan 104 417 nafar migrant va 127 477 nafar remigrant kontingenti hududning ijtimoiy-antropologik qiyofasini belgilovchi asosiy kuchga aylandi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, sohadagi muammolarni bartaraf etish va migratsiyaning ijobiy samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi aniq yechim va ko'rsatmalar ilgari suriladi:

1. «1,5 multiplikator samarasi»ni institutsionallashtirish: Remigrantlarning xorijda o'zlashtirgan ijtimoiy va kasbiy ko'nikmalarini mahalliy muhitga transferini rag'batlantiruvchi «Ijtimoiy kapital bank»larini yaratish. Bunda Andijon viloyatining har bir mahallasida remigrantlarni «ijtimoiy namuna» sifatida targ'ib qilish tizimini yo'lga qo'yish zarur.

2. Destruktiv unifikatsiyaga qarshi «Ma'naviy filtr» modelini joriy etish: Xorijdan qaytgan «xavfli guruh» (201 nafar) va deport bo'lgan (80 nafar) shaxslar bilan ishlashda faqat ma'muriy nazorat emas, balki ijtimoiy-falsafiy reabilitatsiya usullaridan foydalanish. Bunda shaxsning inqirozga uchragan «men»ligini qayta tiklashga qaratilgan ekzistensial suhbatlar va psixologik treninglar tizimini ishlab chiqish lozim.

3. Migratsiya siyosatining «Inson qadri» paradigmasini mustahkamlash: Prezident Shavkat Mirziyoevning «Hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmaydi» degan tamoyili asosida, migratsiya oqibatlarini monitoring qilishning raqamlashtirilgan «ijtimoiy kartasi»ni yaratish va bunda Ichki ishlar boshqarmasi statistikasini mahallabay tizimi bilan integratsiya qilish.

4. Translokal ijtimoiy muhitni boshqarish: Migratsiya jarayonida bo'lgan 18-30 yoshli yoshlar (32 332 nafar) orasida milliy o'zlikni saqlab qolish va global madaniyatga ijobiy integratsiyalashuvni ta'minlovchi «Virtual madaniy markazlar» faoliyatini kengaytirish.

«Xulosa qilib aytganda, migratsiya jarayonlarining ijtimoiy-falsafiy unifikatsiyasini tizimli va strategik boshqarish — bu shunchaki aholi harakatini tartibga solish emas, balki mintaqaning intellektual va ma'naviy qiyofasini transformatsiya qilish demakdir. Unifikatsiya jarayonini to'g'ri yo'naltirish xorijdan qaytgan fuqarolarning tajribasini milliy qadriyatlar bilan sintez qilish orqali viloyatning inson kapitalini sifat jihatidan yangilashga xizmat qiluvchi qudratli drayver bo'la oladi.

Bu jarayon, o'z navbatida, jamiyatda destruktiv g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlab, ijtimoiy muhitda ma'naviy barqarorlikni ta'minlashning fundamental kafolatiga aylanadi. Natijada, migratsiya fenomeni inqirozli omildan barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi ijobiy ijtimoiy resursga aylanib, Yangi O'zbekistonning strategik maqsadlariga erishishda mintaqaviy rivojlanishning yangi falsafiy modelini yaratadi».

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. — Тошкент: «Ўзбекистон» нашриёти, 2021. — Б. 264.

2. Мирзиёев Ш.М. Биз янги давр остонасида турибмиз, бу даврда инсон қадри ва манфаатлари бош мезон бўлади. // Халқ сўзи, 2022 йил 21 декабрь.
3. Мирзиёев Ш.М. Биз янги давр остонасида турибмиз, бу даврда инсон қадри ва манфаатлари бош мезон бўлади. // Халқ сўзи, 2022 йил 21 декабрь.
4. Шермухамедова Н.А. Глобаллашув шароитида маданий ўзликни англаш муаммолари. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2021. – Б. 145.
5. Гусева. Э.С. Философские проблемы глобальной миграции // Философские науки. 2015. – № 5. – С. 20-35.
6. Элиаде М. История веры и религиозных идей. Т.1. От каменного века до элевсинских мистерий. — М.: Академический проект, 2009. — С. 112.
7. Андижон вилояти Ички ишлар бошқармасининг статистик маълумотлари. 2025 йил 12 ойлик якуний ҳисоботи.
8. Андижон вилояти Ички ишлар бошқармасининг статистик маълумотлари. Хизмат доирасида фойдаланиш учун тайёрланган миграция динамикаси таҳлили. 2025.
9. Андижон вилояти Ички ишлар бошқармасининг статистик маълумотлари. Миграция оқимларининг ёш тоифалари бўйича таҳлилий ахборотномаси. 2025.